



**TOSHKENT VILOYATINING  
CHAKANASAVDOTOVARAYLANMASI**
*(2019yilyanvar-iyul)*


Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 9887,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,5%ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 930,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 0,9%), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 7763,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 6,8%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 893,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,1%) tashkil etdi.

**Shahar va tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  
(mlrd. so'm)**


2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o`shish sur`atlari Chirchiq shahri, Bekobod, Qibray va Chinoz tumanlarida qayd etildi.



**Jami viloyat Chakana savdo aylanmasida  
shahar va tumanlarning ulushi, (%)**



**Chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari, (%)**



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9%ga o`sdi va 930,1mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 9,7% ulushiga to`g`ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 7763,6 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 6,8%ga o`sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 81,0%ga teng kelmoqda.

**Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)****2018yil  
yanvar-iyul****2019 yil  
yanvar-iyul**

 **Yirik korxonalar**  
 **Kichik tadbirkorlik**

**Chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**




Tahliliy natijalarga ko`ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo`yicha Nurafshon shahri (93,8%), Oqqo`rg`on tumani (94,3%), Yangiyo`l shahri (88,9%), Bostonliq tumani (88,5%), Parkent tumani (88,7%), Yangiyo`l tumani (90,9%) va Piskent (83,9) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 9,7% ni tashkil etib, eng katta ulush Chinoz tumani (31,6%), Bekobod shahri (22,9%), Toshkent tumani (17,4%), O`rtachirchiq tumani (13,8%), Yuqorichirchiq tumani (12,4%), Qibray tumani (10,5%), Chirchiq shahri (12,6%), Ohangaron shahri(17,1%) tumanlarida kuzatilgan.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalar  
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>930056,8</b>	<b>98,9</b>	<b>7763587,2</b>	<b>106,8</b>
Nurafshon sh.	653,8	123,4	346859,8	153,1
Olmalıq sh.	116627,1	107,0	693792,7	104,7
Angren sh.	32331,7	124,5	386367,2	101,9
Bekobod sh.	120592,5	191,5	372884,9	91,3
Ohangaron sh.	31737,5	91,9	126120,1	109,4
Chirchiq sh.	63811,5	101,2	382112,1	105,2
Yangiyo`l sh.	16366,7	88,7	420772,6	104,0
<i>tumanlar:</i>				
Oqqo`rg`on	5475,5	82,2	349579,3	103,5
Ohangaron	5716,1	207,0	130756,0	105,9
Bekobod	14824,8	424,1	188169,3	101,8
Bo`stonliq	24886,1	69,1	374907,6	107,6
Bo`ka	12383,8	88,3	255077,0	106,4
Quyichirchiq	2650,6	89,7	141004,6	104,3
Zangiota	58833,5	94,8	1033101,2	104,4
Yuqorichirchiq	45069,6	49,6	298605,0	124,7
Qibray	73510,0	73,5	535218,9	112,6
Parkent	16214,7	127,3	318887,9	105,6
Piskent	8510,9	101,1	174552,6	104,7
O`rtachirchiq	26253,5	87,8	150800,9	106,9
Chinoz	135754,0	99,3	265708,9	104,0
Yangiyo`l	18764,3	116,6	406346,3	103,2
Toshkent	99088,7	95,9	411962,5	108,8


**Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**



2019 yil yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 3297,2 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 4,1%ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-iyul oylarida o`tgan yilga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida o`sish ko`rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko`rsatkichlar Yangiyo`l shahri (7911,3 ming. so`m), Zangiota tumani (6278,7 ming. so`m) va Olmaliq shahri (6795,3 ming. so`m) hissasiga to`g`ri keladi.

**Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi**

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>3297,2</b>	<b>104,1</b>
Nurafshon sh.	7657,1	147,2
Olmaliq sh.	6795,3	103,2
Angren sh.	2648,4	101,8
Bekobod sh.	5557,7	103,0
Ohangaron sh.	5001,0	103,4
Chirchiq sh.	3242,2	103,8
Yangiyo`l sh.	7911,3	102,3
<b>tumanlar:</b>		
Oqqo`rg`on	3575,3	101,69
Ohangaron	1590,7	105,9
Bekobod	1477,9	105,2
Bo`stonliq	2544,0	102,9
Bo`ka	2466,3	102,9
Quyichirchiq	1599,6	102,0
Zangiota	6278,7	102,7
Yuqorichirchiq	2732,8	102,7
Qibray	3541,5	104,0
Parkent	2369,6	104,1
Piskent	2090,0	102,7
O`rtachirchiq	1293,7	101,8
Chinoz	3260,8	100,7
Yangiyo`l	2157,4	102,0
Toshkent	3187,1	104,2



Jumladan, 2019 yilning yanvar-iyul oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,7%ni tashkil etib, 261,9 mlrd. so`mga yetdi yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,9% oshgan. Bunda jami savdo aylanmasining 78,9 % ulushi kichik tadbirkorlik sub'ektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

### TOSHKENT VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


(2019 yil yanvar-iyul)

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 4018,4 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 0,1 %ga kamaydi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm yirik korxonalariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, 2202,2 mlrd. so`mni tashkil

etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,2 %ga kamaydi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 54,8 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkichni tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, O'rtachirchiq tumanida (98,3%), Bekobod tumani (72,6%), Qibray (80.3) tumanlarida va Olmaliq shahrida (20.5) yuqori bo'lgan.

### Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibidakichik tadbirkorlik sub`ektlari aylanmasining ulushi 45,2% ni tashkil etdi, kichik korxonalarining ulushi katta bo'lgan Ohangaron shahar (100,0%), Angren (99,9%) shahrida va Yangiyo'l (99,9%) tumanida kuzatildi.

**Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi**

	Jami (mlrd.so`m)	O`tganyilnin gshudavrig anisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tganyilnin gshudavriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilningshu davriganis batan, %da
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>4018,4</b>	<b>94,2</b>	<b>2202,2</b>	<b>87,9</b>	<b>1816,1</b>	<b>103,3</b>
Nurafshon sh.	20,3	101,9	0,1	62,4	20,2	102,1
Olmalik sh.	84,4	66,2	17,3	27,8	67,1	102,7
Angren sh.	30,4	102,7	0	14,9	30,3	103,4
Bekobod sh.	42,6	101,4	0,2	15,2	42,4	103,6
Ohangaron sh.	26,5	102,6	0	0	26,5	102,6
Chirchiq sh.	84,4	104,2	4,9	97,2	66,179,5	104,7
Yangiyo`l sh.	113,5	105,8	0,4	496,3	113,1	105,5
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo`rg`on	3,7	97,7	0	6,0	3,7	101,5
Ohangaron	26,0	102,5	0,2	71,3	25,8	102,8
Bekobod	47,9	105,3	34,7	107,9	13,1	99,0
Bo`stonliq	43,5	83,0	0,3	2,9	43,2	102,2
Bo`ka	19,8	101,9	0	57,0	19,8	102,0
Quyichirchiq	15,6	101,0	0,1	52,2	15,5	101,7
Zangiota	428,2	92,1	4,7	8,8	423,5	103,0
Yuqorichirchiq	77,8	115,7	10,0	984,4	67,8	102,4
Qibray	905,6	90,5	727,4	87,7	178,2	104,0
Parkent	64,9	105,7	0,8	841,7	64,1	104,6
Piskent	22,5	100,6	0	10,2	22,5	101,8
O`rtachirchiq	1108,6	92,9	1089,2	92,7	19,4	102,0
Chinoz	331,8	94,4	297,4	93,6	34,4	101,7
Yangiyo`l	110,9	105,7	0,1	41,1	110,8	105,9
Toshkent	409,4	101,7	14,3	84,8	395,1	102,5

**Shahar va tumanlarkesimidaulgurjisavdotovaraylanmasining o`tganyilganisbatano`zgarishsur`atlari,(%)**



Ulgurji tovar aylanmasida o`tgani yilning shu davriga nisbatan eng quyi o`shish sur`ati Olmaliq (66,2 %) shahrida qayd etildi.

**Tashqiqtisodiyfaoliyatvasavdo  
statistikasibo`limi  
Tel.:71-230-86-59**